

## **CHAKANDA (HIPPOPHAE RHAMNOIDES L.). O'SIMLIGINING FOYDALI XUSUSIYATLARI.**

**Jumaboyeva Feruzabonu Ravshanbek qizi**

*Farg'ona davlat universiteti, biologiya yo'nalishi 3-kurs talabasi*

**Chakanda (Hippophae rhamnoides L.).** Vodiylarda va daryolarning bo'ylarida o'sadigan o'simlik bo'lib, Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi. O'rta Osiyo, Kavkaz, Sibir, G'arbiy Evropa, Mangoliya, Tibet, Eron, Afg'onistonda tarqalgan.

Chakanda yorug'sevar, sovuqqa chidamli o'simlikdir. Chakanda urug'idan, poya va ildiz-qalamchalardan ko'paytiriladi.

Chakanda kuzda yoki erta bahorda ekiladi. Erta bahorda maysalar bir tekis unib chiqishi uchun urug'lar bir oy davomida qumda stratifikatsiya qilinadi. Urug'lar sabzavot ekish moslamalarida 5 sm chuqurlikda ekiladi. Egat oralari 70-90 sm, gektariga 11-13 kg urug' sarflanadi. Maysalar urug'lar ekilgandan 10-15 kundan keyin paydo bo'ladi. Birinchi yili sekin o'sadi, 15-30 sm balandlikka boradi. Shuning uchun har 3-4 sug'orishdan keyin kultivatsiya va yagona ishlari olib boriladi. Birinchi yili 12 marta sug'oriladi. Vegetatsiya davri oxirida ildizlari maxsus asbobda kesilib ixchamlashtiriladi.

Vegetativ yo'l bilan ko'paytirilganda asosan yashil qalamchalardan foydalaniladi. Qalamchalar ertalab uzunligi 8-12 sm, 8-10 barg qoldirib tayyorlanadi. Qalamchalar qum, go'ng va torf aralashmasiga ekiladi. Ekish oldidan qalamchalar geteroauksin eritmasi bilan (1 chelak suvga 100 mg) 12-18 soat 20-25°S da ishlov beriladi. Erta bahorda ildiz otgan qalamchalar dalaga ekiladi.

Shuningdek plantatsiya tashkil etish uchun eng qulay usul ko'chatlaridan ekish hisoblanadi. Plantatsiya tashkil etish uchun gektar hisobiga 500 dona ko'chat o'tqaziladi.

Plantatsiya urug'dan tashkil etilganda 10-12 yili, qalamchadan 8-9 yili, ko'chatidan bo'lsa 6-7 yili hosilga kiradi yoki hosildorlik dastlabki yilda gektar hisobiga 2,5-3 sentnerdan va keyingi yillarda 8-10 sentnerga etadi.



Xom-ashyo tayyorlanishi va uning sifati. Xom-ashyo sifatida mevalari, urug'ining moyi va barglaridan foydalaniladi. Mevalarining yig'ilishi sentyabr-oktyabrda, barglariniki esa may oyida amalga oshiriladi.

**Tibbiyotda qo'llanilishi va kimyoviy tarkibi.** CHakanda mevasi va urug'larining yog'i og'riq qoldiruvchi, teri to'qimasini tiklanishini tezlashtiruvchi, yaralarni bitiruvchi va vitaminlarga bo'lgan talabni qondiruvchi vosita sanaladi. Mevalarining sharbatlari, damlamalari, tindirmalari turli avitaminoz, oshqozon yarasi kasalliklarida qo'llaniladi. CHakanda urug'ining moyi turli teri kasalliklarida, ginekologik kasalliklarida, nur kasalliklarida keng foydalaniladi. O'rta Osiyoda barglari revmatizmida ishlatiladi. Mevalarini ho'l holida yoki murabbo, kompotlar sifatida ishlatish mumkin.

Mevalari karotinoidlar, karotin (60 mg%), kriptoksantin, zeaksantin, organik kislotalar (2,64%), oshlovchi moddalar, S vitamini (450 mg%), V1 (0,035mg%), V2 (0,056 mg%), E (145 mg%) vitaminlari, tarkibida olein, stearin, linolen saqlovchi yog'lar (8%) uchraydi. Mevalari tarkibida vitaminlar ko'p bo'lganligi uchun, o'simlik eng yaxshi vitamin saqlovchi tabiiy vosita sanaladi.

Jiyda (*Elaeagnus L.*) turkumi. Jiyda turkumining turlari morfologik tomondan to'liq o'rganilmagan SHuning uchun ham yuqorida ta'kidlanganidek jiyda taksonomiyasi adabiyotlarda har xil berilgan. Jiyda sistematikasini o'rganishda morfologik organlarning tuzilishi katta rol o'ynaydi. Sababi ayrim turlar ana shu belgilar asosida ajratilgan. Ilmiy asarlarda ta'kidlanishicha ko'pchilik mutaxassislar barglarning tuzilishiga qarab yangi turlar kashf etgan. Xaqiqatda ham novdalardagi barglarning o'lchami, rangi va ularni qoplab turuvchi tukchalar (tangachalar) yilning mavsumiga qarab o'zgarib turadi.

Ingichka bargli jiyda (*Elaeagnus angustifolia* L.). *E. angustifolia* L., turining generativ novdalaridagi bahorgi barglari kumush rang, uzunchoknashtarsimon, vegetativ novdalardagi barglar och yashil, uzunligi eniga ko'ra 2-3 marta ortiqroq bo'lib, keng nashtarsimon ko'rinishga ega. Kuzgi generativ hamda vegetativ novdalardagi barglar rangi, o'lchami va barg yaproqlarida joylashgan yulduzsimon tukchalar boshqacha ko'rinishga ega. Kuzgi barglarning ustki tomoni ko'k, bargining ostki tomoni kumush rangli yulduzsimon tukchalardan iborat, barg o'lchami kattaroq bo'lib, keng nashtarsimon ba'zan ovalsimon ko'rinishga ega.

Tarqalishi va ekologiyasi. O'rta Osiyo jiydalarining shimoliy chegarasi Qozog'istonning Balxash, Zaysan ko'llari atrofida hamda Ili, Lepsa, Ayaguz, Irtish, CHu, Sirdaryo, Turgay, Irgiz, Emba daryolari orqali o'tadi. O'tmishda bu erlarda jiydalar yirik to'qayzorlar hosil qilgan. Jiydalar Qirg'izistonning tog' va tog' oldi daryolari (Norin, CHotqol, Qoradaryo) bo'ylarida va Issiq-Ko'l atroflarida ancha keng tarqalgan. Ayniqsa CHotqol daryosi vohasidagi Jangi-Bozor, Ak-Tam, Kinish-Kiya rayonlarida ko'plab jiydazorlar bor. Tojikistonda Sirdaryo (Xo'jand shahri) yaqinida, Vaxsh, Qizilsu, Zarafshon (Pandjakent rayonida), Surxob, Bartang, Gunt, daryolari vohalarida ham jiydalar katta maydonlarda tarqalgan. Bu erda jiydalar dengiz sathidan 500-2000m gacha bo'lgan hududlarda uchraydi.

Turkmanistonda – Sumbar, Atrek, Arvaz, Murg'ob, Tedjen, Amudaryo, bo'ylarida ya'ni, Kerki, Xalach, Etbosh, Beshir, Eldjek, Farob rayonlaridagi to'qaylarda turli yoshdagi jiyda tuplarini ko'rish mumkin. O'zbekistonda jiydalarning yirik va mayda daryolar (Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Norin, Chirchiq, Angren, Surxondaryo, Qashqadaryo, SHerobod, To'palon, Sanzar, Oqdaryo, Qoradaryo) bo'ylaridagi to'qayzorlarda hamda yirik sug'orish kanallari (Eski Anhor, Farg'ona, Mirzacho'l, Qashqadaryo, Do'stlik, Darg'om) da o'sishi aniqlangan.

*E. angustifolia* Pomir va Kopet-Tagdan tashqari O'rta Osiyoning barcha daryolari vohalarida, cho'ldan tog'larning o'rta qismigacha bo'lgan joylarda, *E. orientalis* ning Amudaryo, Pomir Olay tekisliklaridan tog'larning yuqori qismigacha bo'lgan joylarda, *E. spinosa* ning Sirdaryo, Zarafshon, Amudaryo, Murg'ob, Tedjen daryolarining quyi (cho'l) qismidakeng tarqalgan.

Tibbiyot qo'llanilishi. Jiyda mevalarini uzoq vaqt yangi uzilganidek saqlash va turli joylarga olib borish mumkin. Bundan tashqari uning mevasi parranda va to'qay hayvonlarining sevimli ozuqasi ham hisoblanadi. Jiyda xalq xo'jaligi uchun muhim ahamiyatga ega. Mevasi tarkibida 40-65%, qand, 11,0% oqsil, shuningdek ma'lum miqdorda kletchatka, yog', oshlovchi moddalar, organik kislotalar bor. Bundan tashqari, jiyda mevasining etida kaliy va fosfor tuzlari hamda V1, V2, RR, va E vitaminlari borligi aniqlangan.

Jiydadan dorivor o'simlik sifatida juda qadimdan xalq tabobatida foydalanib kelinganligi ma'lum. Abu Ali Ibn Sino qonni tozalash, ich ketish, ruhni tetik qilish,

ishtaha ochishda jiydadan keng foydalangan. Jiyda mevasi servitamin bo'lganligi tufayli ilmiy meditsinada kamqonlik, teri qazg'oqlanishi, bo'y o'smasligida, organizmda tuz-suv mutanosibligini saqlashda, fikrlash qobiliyatini oshirishda va yurak faoliyatini kuchaytirish maqsadida iste'mol qilish tavsiya etilgan. SHuningdek, xalq tabobatida jiyda mevasining xususiyatlaridan yana biri bolalarda uchraydigan ich ketish kasalligiga qarshi yaxshi davo hisoblangan. Uning damlamasi nafas yo'llari shamollaganda, oshqozon-ichak va radikulit kasalliklarini davolashda foyda beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Buriyev X.CH., Alikulov S.M. O'zbekistonda genetik resurslarni saqlash, samarali foydalanish va boshqarishni tashkil etish. // T.: Fan ziyosi, 2022.- 205 b.
2. Juchenko A.A. Bioraznoobraziye- osnova soxraneniya mirovnyx geneticheskix resursov rasteniy. // Geneticheskiye resursy lekarstvennyx i aromatcheskix rasteniy: Mat. mejd. konf.- M., 2001.
3. Tolmachyov A.I. Osnovy ucheniya ob arealax. // L., 1962.
4. Yursev B.A. Izucheniye biologicheskogo raznoobraziya: vklad floristiki. // Izucheniye biologicheskogo raznoobraziya metodami sravnitelnoy floristiki: Mat. IV rab. sov. po sravn. floristike.- Berezinskiy biosfernyy zapovednik.- 1993.- SPb., 1998.
5. Sharobitdinovich, T. K., Ravshanovich, O. R. I., & Baxtiyarovna, U. F. (2022). LIPA O 'SIMLIGINING MORFOLOGIYASI VA FIZIOLOGIYASI, FARG'ONA SHAHAR FLORASIDAGI AHAMIYATI. Farg'ona davlat universiteti, (5), 63-63.
6. Ravshanovich, O. I. THE WORLD OF PLANTS IN THE URBAN FLORA OF FERGANA CITY.